O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING DAVLAT TA’LIM STANDARTI VA O‘QUV DASTURI
ONA TILI
(XI SINF)



Toshkent-2020

UQTIRISH XATI

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi — o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi — o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me’yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi o‘quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun ona tili o‘quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so‘z turkumlari, ularning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘zlarning morfemik tarkibi, imlo qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar tashkil etadi.

5-11-sinflardan boshlab esa o‘quvchilarga ona tili fanidan fonetika, grafika, imlo, so‘z tarkibi, so‘zlarning yasalishi va o‘zgarishi, so‘z turkumlari, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, so‘z birikmasi hamda gap tuzish qonuniyatlarini, qo‘shma gap va undan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini, tinish belgilari va imlosi, uslubiyat va nutq madaniyatini o‘rgatish yuzasidan nazariy bilimlarni va grammatik materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish tamoyiliga asoslangan holda berish ko‘zda tutiladi. Ushbu bilimlar asosida hosil qilinadigan ko‘nikma-malakalar bitiruvchilarda ona tilida so‘zlardan o‘rinli foydalanish, so‘zlarni o‘zaro to‘g‘ri bog‘lab gap tuza olish, matn tuza olish, matn ustida ishlash, o‘rganilgan matndan asosiy g‘oyani, fikrni anglay olish, nutqning mantiqiyligi, izchilligi, aniqligiga rioya qilgan holda erkin muloqot yurita olish, o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifodali, ravon, mazmunli yetkazib bera olish kompetensiyalarini shakllantirishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2018-yil 28-oktabrdagi 266-sonli buyrug‘iga asosan tayanch o‘quv rejaga o‘zgartirishlar kiritildi, ona tili faniga 10-11-sinflar uchun amaldagi 1 soatga yana 1 soat qo‘shib berildi. Shunga ko‘ra 10-11-sinflar uchun ona tili faniga yil davomida ajratilgan 34 soat 68 soatga ko‘paydi. Amaldagi 10-11-sinf ona tili fani o‘quv dasturi hamda darsligi 34 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, qo‘shilgan 34 soat uchun o‘quv amaliyoti jarayonida qo‘shimcha o‘quv materiallariga, o‘quv qo‘llanmaga ehtiyoj sezildi.

Qo‘shimcha 34 soatga mo‘ljallangan dastur amaldagi dastur asosida yaratilishi ko‘zda tutilgan. Shuni inobatga olgan holda qo‘shimcha dasturda amaldagi dasturda berilgan mavzularni mustahkamlash, ularni qo‘shimcha materiallar bilan kengaytirish, ta’limiy-didaktik topshiriqlar bilan boyitish,

o‘quvchining nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) va lingvistik kompetensiyalarini shakllantiradigan, og‘zaki va yozma savodxonligini oshiradigan mashqlar, o‘qish savodxonligiga yo‘naltirilgan topshiriqlar, ish qog‘ozlari mavzusi kengaytirilib, ulardan amaliyotda foydalanish kabilar kiritildi. Bu esa, har bir mavzuni kengroq o‘rganib, mustahkamlash va hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalari shakllanishiga asos bo‘ladi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil, mantiqiy, kreativ va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish lozim. Shuning uchun ushbu dastur asosida yaratilajak darsliklarda ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, darsni o‘quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga, o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga hamda nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish), va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, nutqiy mavzular va matnlar kiritildi. Berilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, o‘quvchini mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar, savol va topshiriqlar,nutqiy mavzular mazmuniga mos rasm va illyustratsiyalar kiritiladi va ular grammatik mavzu bilan bog‘lanadi.

Shuningdek, o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturi PISA (inglizcha—Programme for International Student Assessment)ga oid mantiqiy, ijodiy va kreativ fikrlashga undovchi mashq va topshiriqlar darslik mazmuniga singdiriladi.

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish,gapirish, o‘qish, yozish,*):

Tinglab tushunish:

sohaviy ilmiy- ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi;

nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi; ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqyea-hodisalarni, muloqot jarayonida o‘ziga qaratilgan nutqni, yoki o‘zgalarning o‘zaro muloqot jarayoni – suhbat mohiyatini tasavvur qila oladi, eslaydi, tushunadi;

darslikda berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni, so‘z, ibora va atama(termin)larni o‘qib tushunadi;

turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal,fikrni tushunadi, taqqoslaydi, ajrata oladi, umumlashtirib xulosalay oladi.

Gapirish:

nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va uslubiy me’yorlarga amal qiladi;

mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini og‘zaki bayon qila oladi;

o‘rganilgan matnni ketma-ketlikka amal qilgan holda og‘zaki bayon qila oladi;

berilgan topshiriq, ma’lumotni qanday ketma-ketlikda bajarish usulini og‘zaki ifodalay oladi, berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni og‘zaki bayon qila oladi;

turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni ajrata oladi, tushunadi, taqqoslaydi, fikrini umumlashtirib og‘zaki munosabat bildira oladi;

tanish va notanish mavzularda muloqot boshlay oladi, muloqotni davom ettira oladi, mavzu mohiyatini ochuvchi, suhbatga aloqador savollar bera oladi.

O‘qish:

turli janrdagi tanish, notanish matnni tinish belgilariga amal qilgan holda ifodali, ravon o‘qiy oladi;

berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni o‘qib tushunadi;

turli janrdagi matnlarni o‘qib o‘zi tushungan mazmunni tinglovchilarga gapirib bera oladi;

gazeta va jurnallarni, yozilgan reklama va e’lon, turli mavzulardagi broshuralarni, internet materiallarini, badiiy, ilmiy-ommabop, hamda rasmiy uslubda yozilgan matnlarni o‘qib tushunadi.

Yozish:

imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarga amal qilgan holda ijodiy matnlar yarata oladi;

mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini yozma bayon qila oladi;

fikr ifodasida mantiqan izchillikka rioya qiladi, unda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi;

ish qog‘ozlari(ariza, ma’lumotnoma, hisobot, e’lon, rasmiy va shaxsiy xatlar)ni yoza oladi;

grammatik tamoyil va ma’lumotlarni tanish va notanish vaziyatda yozma bayon qila oladi;

turli matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal,fikrni tushunib ajrata oladi, taqqoslaydi, umumlashtirib, yozma munosabat bildira oladi;

so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi;

husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 22-25 ta gapdan iborat matn yarata oladi;

husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 170-180 ta so‘zdan iborat diktant yoza oladi;

Ish qog‘ozlarini (bayonnoma, bayonnomadan ko‘chirma, rasmiy va shaxsiy xatlar) yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya (leksika, uslubiyat, nutq madaniyati, tinish belgilariga oid):

Leksika: so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to‘g‘ri foydalana oladi. O‘zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyishi manbalarini izohlay oladi.

Nutq madaniyati: o‘zbek tilining bugungi taraqqiyotini izohlaydi. Nutqiy muloqot va nutq madaniyatini, madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlarni, nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning sofligi, nutqning boyligi, nutqning jo‘yaliligi, nutqning ifodaliligini farqlaydi va yozma nutq ifodasida o‘rinli foydalanadi.

1-BOB. TALAFFUZ VA IMLO ME’YORLARI
(6 soat)

Talaffuz va imlo. O‘zlashma so‘zlar talaffuzi va imlosi, qo‘shimcha olgan so‘zlar talaffuzi va imlosi. Talaffuzdagi tovush o‘zgarishi imloda inobatga olinmaydigan so‘zlar.

Nutqda o‘zgaruvchi unlilar. Aytilganidek yozilmaydigan unli tovushlar, yozilganidek aytilmaydigan unli harflar, bunda imlo va talaffuz nomuvofiqligining sabablari.

Nutqda o‘zgaruvchi undoshlar. Aytilganidek yozilmaydigan undosh tovushlar, yozilganidek aytilmaydigan undosh harflar, bunda imlo va talaffuz nomuvofiqligining sabablari.

Matn va lug‘at bilan ishlash.

Urg‘u talaffuzi. O‘z va o‘zlashma so‘zlarda urg‘u, o‘zlashma so‘zlarning urg‘usini to‘g‘ri qo‘ymaslik nutq madaniyatiga rioya qilmaslik belgisi.

Qo‘shib yoziladimi, ajratib? Qo‘shma va juft so‘zlar imlosi, ajratib yoziladigan qo‘shma so‘zlar, qo‘shib yoziladigan qo‘shma so‘zlar, ajratib ham, qo‘shib ham yoziladigan qo‘shma so‘zlar.

Matn va lug‘at bilan ishlash.

2-BOB. SO‘Z QO‘LLASH ME’YORLARI
(4 soat)

Nutqda o‘rinli va noo‘rin so‘zlar. So‘zlarni anglash, farqlash, tanlash va qo‘llash bilim talab qilishi, o‘rinli va noo‘rin qo‘llashni aniqlash yo‘llari.

Nutqdagi taqiqlar. Nutqda qo‘rquv asosidagi taqiqlar, andisha asosidagi taqiqlar, hurmat asosidagi taqiqlar.

“Yumshoq” va “qattiq” ifodalar. Fikrni “yumshoq” va “qattiq” so‘zlar bilan ifodalash, fikrning ochiq yoki yopiq ifodalanishi, muloqot madaniyatidagi taqiqlar.

Olmoshlar uslubiyati. Olmoshlar nutqda fikrni yumshoq ifodalash vositasi ekanligi, olmoshlarning yumshatishga ko‘ra turlari, so‘roq olmoshlari yumshatish vazifasining namoyon bo‘lishi.

Matn va lug‘at bilan ishlash

3-BOB. BARQAROR BIRIKMALAR – NUTQIMIZ KO‘RKI (5 soat)

So‘z va ibora teng emas. So‘zlarning bo‘yoqli va bo‘yoqsiz bo‘lishi, iboralarning har doim bo‘yoqdorligi, iboralarning bir so‘zga tengligi va teng emasligi, iboralarning boshqa tilda aynan muqobilga ega emasligi, iboralarni qo‘llash nutqiy salohiyatning yuqoriligidan dalolat berishi.

Maqolni o‘rinli qo‘llash. Maqol ham janr, ham til birligi ekanligi, maqolning ixchamligi, mazmuniy va ta’sirchanlik ko‘lamining balandligi, maqollarning nutq vaziyatiga mosligi, maqollarning bir-birini inkor etishi, maqollar “yumshoq” va ta’sirchan ifoda ekanligi.

Tasviriy ifoda – ko‘tarinki nutq vositasi. Tasviriy ifoda nomning bo‘yoqdor varianti ekanligi, tasviriy ifodaning uslubiy chegarasi, tasviriy ifoda so‘zga tengligi va teng emasligi, shakldosh tasviriy ifodalar.

4-BOB. NUTQNING GRAMMATIK VA PUNKTUATSION ME’YORLARI (5 soat)

Ortiqcha qo‘shimchalar. Qo‘shimchalarning ortiqchaligi, qo‘shimchalarning takroriyligi, ortiqcha qo‘shimcha ortiqcha “yuk” ekanligi, tejam qo‘shimcha qo‘llashda muhimligi, tejamning tejamli bo‘lishi kerakligi.

Qo‘shimchalarni tanlash. Qo‘shimchalarning variantliligi, variantlarning o‘z o‘rniga egaligi, o‘rinli variantni tanlash nutqiy madaniyat belgisi.

Nutqda shakl va mazmun mosligi. Gaplarning shakl va mazmunan mosligi madaniy nutq belgisi ekanligi, gaplarni ixchamlashtirish, matn mazmunini qisqa ifodalash madaniy nutq mezonlaridan biri ekanligi.

Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash me’yorlari. Tinish belgilarini qo‘llash madaniyati, tinish belgilarini qo‘llashning gap mazmuniga ta’siri, tinish belgilari gap mazmuni aniqligining sharti ekanligi.

3-BOB. ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH (2 soat)

Ish qog‘ozlari (bayonnoma, bayonnomadan ko‘chirma, rasmiy va shaxsiy xatlar) ustida ishlash.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo‘limlar nomi	Jami soatlar taqsimoti			
		Jami	**Nazorat ishlari**	**Nazorat ishlari tahlili**	**Mustahkamlash**
	Talaffuz va imlo me’yorlai	6			
2	So‘z qo‘llash me’yorlari	4			
3	Barqaror birikmalar – nutqimiz ko‘rki	5			
4	Nutqning grammatik va punktuatsion me’yorlari	5			
5	Ish qog‘ozlari ustida ishlash	2			
6	Matn va lug‘at bilan ishlash	4			
7	Nazorat ishi va tahlili	4	2		
8	Mustahkamlash				2
Jami		34			